

PSYCHOLOGICAL AND PHYSIOLOGICAL FACTORS THAT ENSURE THE CHILD'S COMMUNICATIVE ACTIVITY IN THE PROCESS OF SPEECH FORMATION

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Kafedra dotsenti, PhD

Rahmatova Dilnavozxon Izzatilla qizi

Maxsus pedagogika, (logopediya) yo'nalishi

Abstract

The article reflects the psychophysiological foundations of human speech activity, the psychological foundations of oral speech and the scientific opinions of scientists on this matter, the ideas about the acquisition of paradigmatic and syntagmatic relations of the grammatical system of speech.

Keywords: Speech development, psychophysiological basis of speech, speech mechanism, grammatical aspect of speech, lexical process, language features.

Introduction

“BOLA NUTQINING SHAKLLANISH JARAYONIDA UNING MULOQOTGA KIRISHISH FAOLIYATINI TA'MINLAYDIGAN PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK OMILLAR”

Kafedra dotsenti, PhD

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Maxsus pedagogika, (logopediya) yo'nalishi

Rahmatova Dilnavozxon Izzatilla qizi

Annotatsiya

Maqolada inson nutqiy faoliyatining psixofiziologik asoslari, og'zaki nutqning psixologik asoslari va bunga doir olimlarning ilmiy fikrlari, nutqning grammatik tizimini egallash paradigmatic va syntagmatic aloqalarini egallashi haqidagi fikrlar aks etgan.

Tayanch soʻzlar. Nutqiy taraqqiyot, nutqning psixofiziologik asosi, nutqiy mexanizm, nutqning grammatik jihati, leksik jarayon, til xusuiyatlar.

Maxsus pedagogikaning muammalaridan biri meʼyoriy nutq rivojlanishidan chetga chiqishi. Nutq buzilishlari, nutq buzilishlari sifatida psixofiziologik mexanizmlarning shakllanmaganligi, buzilishlari sifatida qaraladi, ular til xususiyatlarini, nutqni oʻzlashtirishni taʼminlaydi. Nutq buzilishlarida nutq nuqsoniga ega shaxs yordamga muhtoj boʻladi. Nutq buzilishlarida muloqot qila olish imkoniyati bor yoki yoʻqligi haqida muammo tugʻiladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, quyidagi nutqiy buzilishlarni farqlash mumkin:

-shaxs buzilishlari bilan bogʻliq patopsixologik nutq buzilishlar, ong va oliy psixik funktsiyalar bilan bogʻliq (masalan, shizofreniya);

-bosh miyaning lokal jarohatlanishi oqibatida yuzaga keladigan nutq buzilishlari (afaziya);

-tugʻma yoki orttirilgan sensor sistema buzilishlari bilan bogʻliq nutq nuqsonlari (karlik) ;

- aqli zaiflik yoki ruhiy rivojlanishi sustlashishi oqibatida yuzaga keladigan nutqiy nuqsonlar;

-nutqning motor rejalashtirilishining nuqsonlari yoki nutqiy motorikaning tarqalish programmasini buzilishi.

Inson nutqiy faoliyatining psixofiziologik asoslari I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va ularning safdoshlari ilmiy qarashlarida oʻz aksini topgan.

I.M.Sechenov miyaning reflektor funktsiyasiga insonning ongli va ongsiz xayot faoliyatining barcha jabhalarini kiritadi va obʼektiv amalini ongda aks etishda nutqiy analizator faoliyati nutqining alohida ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab oʻtadi. I.M.Sechenov oʻzining fiziologik tadqiqotlarida nutqiy - taffakur mexanizmi ilmiy asoslarini ishlab chiqadi. ,

I.P.Pavlov fiziologiyaning yangi tarmogʻi - bosh miyaning katta yarim sharlari fiziologiyasining yaratuvchisi xisoblanadi. Olim, ikkinchi signal tizimi funktsiyasi birinchi signal sistemasi bilan oʻzaro aloqadorlikda amalga oshiriladi, deb eʼtirof etadi. Oʻzaro aloqadorlikni buzilishi natijasida nutq maʼnosiz soʻzlar toʻpiga aylanadi.

A.R.Luriya taʼkidlashicha, bosh miyada nutq zonalari Broka va Vernike zonalari sifatida anglashiladi.

U.Penfiled yordamchi funktsiyani amalga oshiruvchi miyaning yuqori qismini aniqladi. Muallif, uchta nutqiy zonalar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, yagona nutqiy tizim sifatida funktsiyalarni amalga oshiradi, deb ta'kidlaydi. Nutqiy taassurotlarni o'ziga jamlovchi markaz deb nomlash lozim. Nutqiy - analizator nutqni shakllanishi bilan bog'liq holda harakatlanadi.

Inson tafakkur turlari (ko'rgazmali, amaliy - ko'rgazmali) nutqiy tushunchalar bazasi asosida shakllanadi, xotirada saqlanadi va ichki nutq tariqasida faollashadi, deb e'tirof etadi.. Sokolov, ichki nutqni «tafakkurning asosiy mexanizmi» deb e'tirof etadi. Olim ichki nutk turli nutkiy mexanizm (harakat, ko'rish, eshitish) lardan tashkil topganini ta'kidlaydi.

Og'zaki nutqning psixologik asoslari haqida gap ketganda, nutq umum psixologik kategoriyalar turkumiga kirganligini ta'kidlash joizdir.

L.S.Vigotskiy o'zining psixologik kontseptsiyalarida, nutq belgilar majmuasidir. Bu belgilarni egallash muloqat orqali predmet - faoliyat jarayonida amalga oshadi,- deb ta'kidlaydi.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev va boshqalar og'zaki nutqni shakllanishi faoliyatning shakllanishini oshiradi. Og'zaki nutqni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy shart - sharoiti bola nutqini motivatsiya tamoni rivojlantirish hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish uchun atrofdagi predmetlar bilan faoliyat orqali muloqotga ehtiyojni yuzaga keltirish kerak. SHuni ta'kidlash joizki insonning yoshlik davrida predmet faoliyat jarayonida nutqiy qobiliyat shakllanadi. Ko'pgina olimlar, nutq faoliyatini ma'lum sharoitlarda kattalar nutqiy "harakati va predmetlarning farqiy xususiyatlariga taqlid qilish orqali vujudga keladi, deb ta'kidlaydilar. Nutqni rivojlantirish - muloqot usulini rivojlantirishdir, muloqot jarayonida bola so'z tovush tarkibi va ma'lum gap modellarini egallaydi.

Bolaning ruhiy rivojlanishi murakkab xarakterga ega bo'lib, bu jarayonda katta yoshdagilar bilan bola muloqoti katta o'rin tutadi. Bolani tug'ilganidan boshlab 7 yoshigacha bo'lgan davrida kattalar bilan bo'lgan muloqoti kommunikatsiyaning yaxlit butun formalarini tashkil etadi. SHuningdek, muloqot formasi kommunitsial faoliyatning ma'lum darajasini o'zida aks ettiradi.

Nutq dastlabki 3 yillikda aktiv shakllanadi uch yoshida bolalar atrofdagilar muloqotining ayrim formalarini egallaydilar: sharoitga qarab shaxsiy (bolaning 1 yoshi) sharoitiga qarab ishchanlik (3 yosh - 5 yosh) ruhiga yo'g'rilgan muloqot 3 yoshidan boshlab muloqatni yuqori darajasiga sharoitdan tashqarida bo'lgan

fomasiga (3-5 yosh) o'tiladi. Bu forma aqliy muloqotning nutqiy vositalari bilan xarakterlanadi. 6-7 yoshga kelib, muloqot sharoitdan tashqari shaxsiy formaga o'tadi va shaxsiy motivlarga asoslanadi. Nutqiy muloqot formalari asosida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida nutq tizimiga o'rgatish haqida gap ketganda tilning nutqiy tizimiga katta e'tibor berish nazarda tutiladi. Til tizimi 3 ta bir- biriga aloqador printsiptan tashkil topgan. Sintagmatik - bir darajadagi birliklar munosabati - bola tomonidan konkret sharoitda egallanadi. Pragmatik - umumlashtirishning turli darajasida so'zlar munosabati - ularni egallash uchun nutqiy materiallarni yetarli darajada tanlash va nutqiy kuzatishlarni o'tkazish talab etiladi.

Xulosa qilish mumkinki, nutqning grammatik tizimini egallash paradigmatic va sintagmatik aloqalarini egallashni ko'zda tutadi. Nutqning grammatik tizimini shakllantirishda dastlab anglanmagan xolda morfemalarni so'zning leksik yoki grammatik ma'nosi bilan bog'liqligi amalga oshiriladi. SHu asosida nutqiy umumlashtirish (morfologik va sintaktik) yuzaga keladi. Faqatgini tilning ma'lum nutqiy qonun qoidalarini egallagan bolagina to'g'ri va aniq gaplar tuza oladi. Tilning grammatik qonun qoidalarini bilmaslik, so'zning morfologik tizimi va gapning sintaktik strukturasi buzib tuzilishiga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqining grammatik tizimi katta bog'cha yoshidagi bolalarniing ko'p qismida so'z o'zgartirish, so'z yasash, gapning sintaktik qurilishini buzilish holatlari namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madinaxan, M., & Odinaxan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
2. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
3. Madinaxan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH

- DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
4. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
 5. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
 6. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
 7. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
 8. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
 9. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
 10. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.